



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/2



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 2-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 2 - SON
2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

Habib devonidagi g'azallarning badiiy-uslubiy tahlili**Nosirova Iroda Jamoliddin qizi**

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti, 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Habib ijod namunasi hisoblangan “Devoni Habib tarkibida kelgan g'azallar badiiyat jihatidan tahlil qilingan.**Kalit so'zlar:** Devoni habib, ishqiy, tasavvufiy, tabiat tasviri, oshiq, mubolag'a, tashbeh, tashxis.**Аннотация:** В данной статье газели, входящие в состав произведения «Диван Хабиба», являющегося образцом творчества Хабиба, анализируются с точки зрения их художественных особенностей.**Ключевые слова и выражения:** «Диван Хабиба», любовная лирика, суфийская тематика, изображение природы, влюблённый, гипербола, сравнение, олицетворение.**Annotation:** This article analyzes the ghazals included in “Devoni Habib”, which is considered a representative example of Habib’s literary creativity, from the perspective of their artistic features.**Keywords:** Devoni Habib, love lyrics, Sufi themes, depiction of nature, lover, hyperbole, simile, personification.

Habib ijodkor sifatida, mumtoz adabiyotimiz takomilida katta ahamiyatga ega bo'lgan Xorazm adabiy muhitida ijod qilgan shaxsdir. Habib ijodida kuzatiladigan o'ziga xoslik tabiat tasviri orqali diniy, ishqiy, tasavvufiy mavzularni mahorat bilan ochib berganidadir. Uning bu mahorati g'azal, muxammas, musaddaslarida barobar uchraydi, qasidalarida esa yetakchilik qiladi.

Habib asarlarida til va uslub masalasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Shoir mumtoz adabiyot an'analariga sodiq qolgan holda, ifoda soddaligi va ravonligi bilan ajralib turadi. Uning she'rlarida badiiy san'atlar, tashbeh va istioralar o'rinli qo'llanib, mazmunning ta'sirchanligini oshiradi.

Ayniqsa, tabiat tasvirida qo'llanilgan badiiy san'atlar Habib ijodining o'ziga xos jihatini tashkil etadi. Bahor, gul, bog', chaman singari obrazlar ko'pincha jonlantirilib, insoniy xususiyatlar bilan boyitiladi. Bu esa tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi.

Habib tashbeh va isti'ora orqali ishqiy va tasavvufiy kechinmalarni nafis va ramziy shaklda ifodalaydi. Shoir tasvirida yor — gulga, oyga, bahorga qiyoslanadi, ayriqlik esa ko'ksdagi “dog” orqali badiiy ifoda topadi. Shu tariqa badiiy san'atlar shoir ijodida mazmunni chuqurlashtiruvchi va she'ning estetik qiymatini oshiruvchi muhim unsur sifatida namoyon bo'ladi.

E'tiborni ushbu g'azalga qaratadigan bo'lsak:

لعل نامینک اوزرا خط خالینکا جانیم فدا

خاک پاینک کردیغه بو چشم کریانیم فدا

La'li noming uzra xatti xolinga jonim fido

Xoki poying gardig'a bu chashmi giryonim fido.

Mazkur g'azalning matla'si mumtoz o'zbek adabiyotiga xos yuksak badiiy tafakkur va oshiqona lirikaning yorqin namunasi. Baytda oshiqning ma'shuqaga bo'lgan cheksiz muhabbati va ixlosi badiiy san'atlar vositasida ta'sirchan ifodalangan. Jumladan, "La'li noming" birikmasida isti'ora va tashbeh san'ati mujassam bo'lib, unda ma'shuqaning nomi qimmatbaho tosh — la'lga qiyoslanadi. Bu o'xshatish oshiq nazarida ma'shuqaning nomi naqadar aziz va bebaho ekanini ifodalaydi. Shuningdek, "xoki poying gardi" ifodasi ham ko'chma ma'noda qo'llanib, ma'shuqaning oyog'i ostidagi tuproq oddiy modda sifatida emas, balki muqaddas va ulug' ne'mat sifatida talqin qilinadi. Bu hol mumtoz adabiyotda keng tarqalgan kamtarlik va ixlos motivlari bilan bevosita bog'liqdir.

Baytda mubolag'a san'ati muhim o'rin tutadi. "Jonim fido" hamda "chashmi giryonim fido" iboralari orqali oshiq o'z muhabbatini haddan tashqari bo'rttirib ko'rsatadi. Ya'ni u nafaqat jonini, balki ko'z yoshlarini ham ma'shuqa yo'lida qurbon qilishga tayyorligini ta'kidlaydi. Bu mubolag'a oshiq ruhiy holatining kuchliligini va muhabbatning mutlaq darajasini ifodalashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, matlada parallelizm ham kuzatiladi. Har ikki misra mazmunan va sintaktik jihatdan bir-biriga uyg'un bo'lib, birida jon, ikkinchisida ko'z yoshi fido qilinadi. Ushbu parallel tuzilish baytning musiqiylikini oshirish bilan birga, g'oyaviy ta'sir kuchini ham mustahkamlaydi. Umuman olganda, mazkur matla mumtoz g'azal poetikasiga xos badiiy san'atlarning uyg'unligi orqali oshiqona muhabbatning yuksak ifodasini ta'minlagan.

گلشن وصلینک دا جا تاپسام زمانه ایلاسام

عندلیب آسا ترنم برله فغانیم فدا

Gulshan vaslingda jo topsam, zamona aylasam

Andalib osa tarannum birla fig'onim fido.

Mazkur baytda oshiqning ma'shuqa visoliga erishish orzusi va bu holatdagi ruhiy kechinmalari mumtoz adabiyotga xos ramziy obrazlar orqali ifodalangan. "Gulshan vaslingda jo topsam" misrasida ma'shuqaning vasli gulshan obrazida tasvirlanadi. Gulshan mumtoz she'riyatda odatda go'zallik, osoyishtalik va orzu qilingan makon ramzi bo'lib, bu yerda u ma'shuqa visolining ramziy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Oshiq uchun vasl — hayot manbai, ruhiy panoh bo'lib, "jo topsam" iborasi orqali uning ichki taskin topishi ifodalanadi. Bu o'rinda istiora san'ati yetakchi o'rin tutadi.

Ikkinchi misrada "andalib" (bulbul) obrazi keltiriladi. Mumtoz adabiyot an'analariga ko'ra, andalib — oshiqning timsoli, gul esa ma'shuqaning ramzi hisoblanadi. "Andalib osa tarannum birla fig'onim fido" misrasida oshiq o'zini bulbulga qiyoslab, visol bog'ida nolayu fig'on bilan kuylashga tayyor ekanini bildiradi. Bu holatda tashbeh san'ati yaqqol namoyon bo'lib, oshiq o'z ruhiy holatini andalibning nolasiga o'xshatadi.

Baytda mubolag'a san'ati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oshiq visol bog'ida zamona aylashni, ya'ni butun umrini shu holatda o'tkazishni istaydi va o'z fig'onini ham fido qilishga tayyorligini ta'kidlaydi. "Fig'onim fido" birikmasi

orqali oshiq o'z iztiroblarini ham ma'shuqa yo'lida qurbon qilish darajasiga yetgani ifodalanadi. Bu esa muhabbatning mutlaq va cheksiz ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, baytda ramziy-majoziy obrazlar tizimi mavjud bo'lib, gulshan, andalib, fig'on kabi timsollar oshiqona lirikaning an'anaviy poetik unsurlari sifatida o'zaro uyg'unlashgan. Ushbu obrazlar vositasida oshiqning visolga bo'lgan intilishi, ruhiy jo'shqinligi va fidoyiligi badiiy jihatdan yuksak darajada ifodalangan.

کاش تاپسام صحبتینک نی بیر کیچه یاد اشیغا

ایایین جان مخزنیدین کنج نیهانیم فدا

Kosh topsam suhbatingni bir kecha yod ishig'a,

Ayoyin jon maxzanidin ganj nihonim fido.

Birinchi misrada lirik qahramonning orzu-istagi "kosh" so'zi orqali ifodalanib, bu istakning amalga oshishi qanchalik mushkul ekani ta'kidlanadi. "Suhbat" tushunchasi bu yerda oddiy muloqot emas, balki ma'shuq bilan ma'naviy yaqinlik, ruhiy birlik ramzi sifatida namoyon bo'ladi. "Bir kecha" iborasi esa oshiqning talab va istaklari naqadar kamtarona ekanini ko'rsatib, u hatto qisqa fursatlik visolga ham rozi ekanini anglatadi. "Yod ishig'a" birikmasi orqali esa begonalik, uzoqlik va yetib bo'lmaslik holati obrazli tarzda tasvirlanib, ishq yo'lidagi to'siqlar badiiy ifodasini topadi.

Ikkinchi misrada fidoyilik motivi yanada kuchaytiriladi. Shoir "jon maxzani" va "ganj nihon" kabi majoziy birikmalar orqali inson hayotidagi eng qimmat va muqaddas tushunchalarni ifodalaydi. Bu obrazlar oshiqning ichki dunyosi, qalbining tub-tubida yashiringan eng aziz boyligi ramzi sifatida talqin qilinadi. Lirik qahramon ana shu bebaho xazinani ham ma'shuqning birgina suhbatiga fido qilishga tayyor ekanini bildiradi. Bu hol mumtoz ishq falsafasiga xos bo'lgan o'zlikdan kechish, nafs va jismoniy mavjudlikni inkor etish g'oyalarini aks ettiradi.

Umuman olganda, baytda ishq insonni ruhiy yuksaklikka olib chiqadigan, uni o'zidan kechishga undaydigan ilohiy kuch sifatida tasvirlanadi. Oshiq uchun moddiy va jismoniy qadriyatlar ahamiyatiniyo 'qotib, ma'shuq bilan ma'naviy bog'lanish eng oliy ne'mat darajasiga ko'tariladi. Shu jihatdan, mazkur bayt mumtoz o'zbek she'riyatida ishq, fidoyilik va ma'naviy komillik g'oyalarining yorqin namunasi sifatida baholanishi mumkin.

Quyidagi g'azalda ham Habib ijodidagi o'ziga xoslikni ko'rishimiz mumkin:

کلشن دا کل رخسارینی آچسا نکاریم باغ

بلبل کیی کل عشقی دا قالماس قراریم باغ ارا

Gulshanda gul ruxsorini ochsa nigorim bog'

Bulbul kuyi gul ishqida qolmas qarorim bog' aro.

Quyidagi bayt mumtoz o'zbek she'riyati an'analari asosida yaratilgan bo'lib, unda ishq mavzusi tabiat timsollari orqali ifodalanadi. Baytning markazida gul, bulbul va bog' obrazlari turadi. Ushbu timsollar mumtoz adabiyotda an'anaviy

ramziy ma'noga ega bo'lib, ular orqali oshiq va ma'shuqaning ruhiy holati tasvirlanadi.

Baytning birinchi misrasida yor jamoli gulga qiyoslanadi. "Gulshanda gul ruxsorini ochsa nigorim" misrasi ma'shuqaning go'zalligi namoyon bo'lishi bilan butun bog' fayzga to'lishini anglatadi. Gulning "ruxsor ochishi" jonlantirish san'ati orqali berilib, yor husnining tabiiy go'zallikdan ham ustunligi ta'kidlanadi. Bu yerda gul yorning yuzini, bog' esa ishq kechadigan makonni ifodalaydi.

Ikkinchi misrada oshiq obrazi bulbul timsolida beriladi. Bulbulning kuylashi ishqiy iztirob va faryod ramzi bo'lib, "gul ishqida qolmas qarorim bog' aro" misrasi oshiqning ruhiy beqarorligini ifodalaydi. Ma'shuqaning jamoli oshiq qalbini shunchalik zabt etadiki, u osoyishtalikni yo'qotadi. Bu holat mumtoz ishq lirikasiga xos bo'lgan oshiqning iztirob va hayajon bilan yashashi g'oyasini aks ettiradi.

Baytda tashbeh va tashxis kabi badiiy san'atlar samarali qo'llangan. Yor gulga, oshiq bulbulga o'xshatiladi, bog' esa jonli makon sifatida tasvirlanadi. Natijada tabiat va inson ruhiyati o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. Ushbu uyg'unlik baytning estetik ta'sirini kuchaytiradi.

Falsafiy jihatdan qaralganda, bayt tasavvufiy ma'noga ham ega bo'lishi mumkin. Gul ilohiy jamolni, bulbul esa Haq ishqida yonayotgan orif qalbini ifodalaydi. Bog' esa butun borliq ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu talqinda oshiqning beqarorligi ilohiy ishq yo'lida o'zini unutish, foniylilik holatini anglatadi. Xulosa qilib aytganda, bayt mumtoz o'zbek she'riyatiga xos ramziy tizim, ishqiy-falsafiy mazmun va badiiy tasvir vositalarining uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, oshiqning ma'shuqa yo'lida jonini ham ayamaydigan darajadagi fidoyiligi, ma'shuqaning esa beparvo va loqayd holati tasvirlangan. Shoir tashbeh, metafora va qarama-qarshilik san'atlari yordamida oshiqona kechinmalarni chuqur va ta'sirchan ifodalagan. Ushbu namuna mumtoz o'zbek lirikasida oshiqning iztirobli holatini yoritishda muhim badiiy namunalar qatoridan o'rin egallaydi.

Foydalanilga adabiyotlar ro'yxati:

1. Исҳоқов Ё. Бадий санъатлар. – Тошкент: Фан, 1980.
2. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз шеърят асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1998.
3. دیوان حبیب (Devoni Habib). Qo'lyozma. O'zRFA ShI. Asosiy fond. Inv. № 946